

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari	444
I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva	
Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish	448
M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva	
O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi	455
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....	458
O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova	
The structure of speech acts in various types of discourse	462
X.M.Sotvaldieva	
Paremiologiya fan sifatida	467
A.E.Botirova	
Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar.....	473
R.Radjabov	
Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar	478
M.N.Raxmanova	
Texnik oliy ta'lif muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni tanlash usullari.....	482
U.B.Almaz, O.X.Barziyev	
Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi mazmuniy mushtarakliklar.....	486
D.Sh.Islomov	
His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis Izard talqinida	493
M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni (nofilologik ta'lif yo'nalishi misolida).....	498
G.A.Saydaliyeva	
Geshtaltlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....	501
G.N.Isakova	
Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....	506
J.J.Egamberdiyev	
Lug'at zamon va davr elchisi.....	511
Sh.Sh.Zarmasov	
Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili.....	515
G.P.Nazarova, F.B.Alimova	
"Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazionalizmlarning qo'llanilish tadqiqi.....	522
S.A.Mannonova	
Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari	526
N.K.Ergasheva	
Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context	529
A.K.Usmonov	
Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari	533
N.K.Abbasova	
Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms	538
D.G.O'rinoiboyeva	
Maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim mulohazalar	542
N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova	
Promoting oral communication through reading integration.....	545
Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашуро娃	
Когнитивный подход к анализу художественного текста	550

**GESHTALTLARNING TURLI SINONIMIK LUG'ATLARDA VA KONTEKSTDA
IFODALANISHI****РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ГЕШТАЛЬТОВ В РАЗНЫХ СИНОНИМИЧЕСКИХ СЛОВАРЯХ И
КОНТЕКСТАХ****REPRESENTATION OF GESTALTS IN DIFFERENT SYNONYMIC DICTIONARIES AND
CONTEXTS****Saydaliyeva Gavharxon Avazovna**

Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, filologiya

fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ID ORCID 0000-0002-107807818

Annonatsiya

Ushbu maqolada til universaliyasiga xos bo'lgan sinonimlar kognitiv paradigmada tahlilga tortilgan. Tilshunoslikning bir parchasi hisoblangan kognitiv tilshunoslik konseptlarning voqealanishida hodisalarga bir butun holatda, yoki biror bir voqeanning qismi sifatida qarash mavjud. Maqolada konseptning geshtalt tuzilmasi uning assotsiatsiativ maydon tuzilmasiga mos kelishi to'g'risidagi fikri alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois assotsiativ munosabatlар reprezentatsiyasining lisoniy vostitalardan biri sinonimlar hisoblanadi, bunda sinonimik qator chegarasi ochiq bo'lganli sababli tegishli geshtaltini shakllantirish va lug'atlar asnosidagi tahlil natijalari keltirilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются синонимы, характерные для языковых универсалий, в когнитивной парадигме. Когнитивная лингвистика, которая считается частью лингвистики, предполагает рассмотрение событий в целом или как часть события при развитии понятий. Особое значение в статье приобретает идея о том, что гештальт-структура концепта соответствует структуре его ассоциативного поля. Поэтому синонимы являются одним из языковых средств изображения ассоциативных отношений, в котором даются результаты формирования соответствующего гештальта и анализа на основе словарей, поскольку граница синонимической линии открыта.

Abstract

This article, the synonyms characteristic of language universals are analyzed in the cognitive paradigm. Cognitive linguistics, which is considered a part of linguistics, involves looking at events as a whole or as part of an event in the development of concepts. The idea that the gestalt structure of the concept corresponds to the structure of its associative field is of particular importance in the article. Therefore, synonyms are one of the linguistic means of representation of associative relations, in which the results of the formation of the corresponding gestalt and the analysis based on dictionaries are given because the boundary of the synonymous line is open.

Kalit so'zlar: sinonim, geshtalt, kognitiv, lisoniy, konsept, freym, skript, stsenariy.**Ключевые слова:** синоним, гештальт, когнитивный, лингвистический, концепт, фрейм, скрипт, сценарий.**Key words:** synonym, gestalt, cognitive, understanding, frame, concept, script, scenario**KIRISH**

Til universaliyasi millatning bilim xazinasi hisoblanadi. U muayyan tuzilishga ega va bu tuzilish yordamida fikr va tushunchalarni uzatish vositasi hisoblanadi. Chunki fikr va tushunchalar tashqi dunyoning aqlimizda qayta ishlangan shaklidir. Ma'lumki, dunyon, voqelikni bilish, uni idrok etish oddiy xodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to'g'ridan to'g'ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog'lab qo'yishadi. Aslida fahmlash va tushunish bilishning oliv ko'rinishidir. Masalan, hayvonlar ham reflekslari orqali bila oladi, ammo ular bilgan narsasini fahmlay olmaydi. Insondagi bu fahmlash qobiliyatini til tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Til tizimidagi har qanday jarayon quyidagi lisoniy voqeylekni bosib o'tadi. Bu jarayonlar ssenariy, skript, freym, geshtalt va protatip hisoblanadi.

Ssenariy biror tipik hodisaga bog'liq bo'lgan faktlarning uzviyigini aks ettiruvchi namunaviy shakl yordamida yoritishdir. Masalan, tinchlik deganimizda aqlimizga ikki davlat o'rtasidagi urushning nihoyasiga yetkazish uchun yarashuv sulhi keladi. Bunga sabab kognitiv tilshunoslikdagi ssenariy jarayonidir.

Skript jarayoni esa namunavy konseptual tuzilmalarning bir turi sifatida qaralib, u inson tafakkurida aks etayotgan borliqdagi voqealarning me'yoriy ketma-ketligidir. Shunga ko'ra, tinchlik so'zi o'z ma'nosini to'liq ifodalashi uchun urush, g'alaba, mag'lubiyat kabi so'zlar bilan birga tushuniladi. Bu tushunchalarsiz tinchlik so'zidagi ma'no anglashinuvida bo'shliq hosil bo'ladi. Ya'ni, fikrimizni yanada soddarroq ifoda qiladigan bo'lsak, ikki qarshi taraf bir-biri bilan urush olib bordi. Jang natijasiga ko'ra bir taraf g'olib, ikkinchi taraf esa mag'lub bo'ladi. Bu holat oxir-oqibat tinchlikni tiklash uchun yarashuvga olib keladi. Demakki, aytib o'tilgan tushunchalarimiz natijasida tinchlik so'zi o'z ichiga yarashuv tushunchasini singdiradi.

Kognitiv tilshunoslik inson tafakkuri bilan tilning munosabatini, inson tafakkurida jonlangan voqealarni tilda aks etish yo'llaridan biri freym deyiladi. Freym kognitiv tilshunoslikda voqealarni qayta ishlab qisqa shaklda ifoda etish uchun yordam beradigan jarayondir. Masalan, xarid deganimizda aqlimizga sotuvchi tovar xaridor pul orasidagi qisqa jarayon keladi. Ssenariyda vaziyatgacha bo'lgan payt nazarda tutilsa freymda vaziyatning aynan o'zi hisobga olinadi.

ADABIYOTLARNI TAHLIL QILISH

Tilshunoslikning bir parchasi hisoblangan kognitiv tilshunoslikda konseptlarning voqealanishida hodisalarga bir butun holatda yoki biror bir voqeanning qismi sifatida qarash mayjud. Bu kognitivistikada geshtalt deb yuritiladi. Geshtalt – kognitiv lingvistikasining eng asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Geshtaltlarni o'rganishning zamonaviy nazariyasi G. fon Erenfelsning ta'lomitiga tayanadi. Uning fikricha, butun tushuncha unga kiruvchi tarkibiy qismlarning yig'indisiga teng emasligini ilgari suradi. "Geshtalt" atamasi yaxlit shakl, timsol, tuzilmasi ma'nolariga ega bo'lib, dastlab psixologiyada tarkibiy qismlarning yig'indisiga teng bo'limgan psixik hodisani bildirgan, XX asr boshlarida ushbu tushuncha kognitiv lingvistikaga kirib keldi.

L.A.Radzixovskiy fikricha, psixologiya fanida geshtaltlarga yaxlitlik va bo'linmalik tushuncha sifatida e'tibor berishadi, chunki har qanday tahlil tarkibiy qismlar o'rtasidagi ichki aloqalar yo'qolishiga olib keladi. Olim bunday aloqaning yo'qotish sabablarini inson ongida diskret (ya'ni bo'lish, tartibga solish, tuzilmalashtirishga xizmat qiluvchi) va nodiskret (ya'ni korrelyatsi bilan bog'langan har qanday komponentlarini kiritmagan) psixologik hodisalar o'rtasidagi nisbatning buzilishi haqidagi g'oyani ilgari suradi. Diskret va nodiskret hodisalar nisbatining mohiyatini soddalashtirilgan tarzda, ya'ni bir-biridan alohida ajratib ko'rish noto'g'ri hisoblanadi, chunki ruhiyat darajasida ular o'zaro bog'liq bo'ladi. Shuningdek, muallif fikricha, ong birlklari diskret va nodiskret hodisalardan iborat.

U.Kroft esa geshtaltni mental reprezentatsiyalarning asosiy pog'onalaridan biri deb hisoblaydi hamda uni bir qarashda tarqoq bo'lgan sensitiv tasavvurlardan iborat yagona murakkab timsol shakllanishini ochib bergen .

Yuqorida aytiganidek, geshtaltli yondashuvning asosiy tamoyillari lingvistikaga psixologiya fanidan kirib kelgan. Xususan, aniq, hisobga olingan va tavsiflangan lisoniy hodisalar orqali inson ongini o'rganish istiqbollarini ochib berish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Geshtaltlar nazariyasi J.Lakkof tomonidan batafsil o'rganilgan. Uning fikricha, geshtalt tajribani tuzilish jihatdan yaxlit tushunchaga aylantirish usullaridan biri. Muallif geshtaltning muhim xususiyatlarini ajratib olgan:

- qarama-qarshilik, kesishish va h.k. munosabatlari bilan inson ongidan o'r'in olgan boshqa geshtaltlar bilan bog'liqlik;
- inson ongi bilan lisoniy shakllar (metafora kabi) orqali bog'liqlikni belgilovchi implitsitlik (yashirin) xolati .

Olimning ta'kidlashicha, lisoniy shakllar hissiyotlar yordamida anglab olinadigan geshtaltlar mohiyatini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Geshtaltlarni ochib berishga yordam beruvchi aniq, hisobga olinadigan va tavsiflanadigan lisoniy hodisalar, deganda ayrim tilshunos olimlar moslik tushunchasini ilgari surishadi. Misol uchun, L.O.Cherneyko taqdir nominining mosligini tahlil qilib, uning geshtalt tuzilmasini tuzib chiqadi. Uning fikricha, geshtalt "mavhum va aniq – geterogenli

TILSHUNOSLIK

borliqlarning chuqur bog'liqlik natijasidir". Misol uchun, O'z taqdiri o'qimoq gapidan taqdir – kitob geshtalti, yoki ularning taqdirlari bog'lanib, chalkashib ketdi gapidan olim taqdir – ip geshtaltini olib chiqdi. Bu yerda konseptning geshtalt tuzilmasi uning assotsiativ maydon tuzilmasiga mos kelishi to'g'risidagi fikri alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif fikricha konseptlar geshtalt tuzimasini belgilash mavhum borliqlarni tadqiq qilish istiqbollariga tegishli deb hisoblaydi.

I.A.Sternin, G.V.Bikova kabi tilshunoslar geshtaltlarni mavhum leksikaning semantik mazmunini hosil qiluvchi muayyan kompleks tasvirlar deb tushunishadi. Chunki assotsiativ reaksiyalar uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida taklif qilingan so'zlar ushbu reaksiyalarni "tipik vakil" turiga aylantirishadi.

Ushbu konseptual g'oyalar tadqiqotimiz sohasiga mos keladi, chunki geshtaltlar inson ongida sodir bo'ladigan assotsiativ jarayonlar bilan chambarchas bog'liq. Assotsiativ munosabatlар reprezentatsiyasining lisoniy vositalardan biri sinonimlar hisoblanadi, bunda sinonimik qator tegishli geshtaltning shakllantirilgan tasavvuri sifatida aniqlanishi mumkin. Kognitiv yondashuv sinonimik qator chegaralarining ochiqligi va oshkoraliqi fenomenini izohlashga imkon beradi. Geshtaltlarni shakllantirish jarayonida yaxlit hodisa unga kiruvchi tarkibiy qismlarning yig'indisidan ko'proq bo'lganligi uchun u yoki bu leksik birliklar o'z aksini topgan qoldiq, ya'ni o'ziga xos erkin hujayra, paydo bo'ladi. Sinonimik munosabatlarni o'rganishga bo'lgan yondashuvimizni yangi deb hisoblaymiz, chunki taklif qilinatyogen geshtalt-tahlilning asosiy "vositasi" bo'lib so'zlarning semantik aloqalari xizmat qiladi. Geshtaltlar asosida sinonimlarni stilistik jihatdan qo'llanish xususiyatlarini quyidagi sinonimik lug'atlar misolida qo'rib chiqdik:

1. Англо-русский синонимический словарь. Ю.Д. Апресян, В. В. Вотякова, Г. Э. Латышева и др.
2. Девлин, Д. Словарь синонимов и антонимов английского языка.
3. Crabb's English Synonyms. Arranged Alphabetically with Complete Cross References throughout / by George Crabb, M. A. Routledge and Kegan Paul.
4. New Webster's Dictionary and Thesaurus of the English Language.
5. Roget's International Thesaurus.
6. Roget's Thesaurus of English Words and Phrases.
7. Webster's Dictionary of Synonyms. A Dictionary of Discriminated Synonyms with Antonyms and analogous and contrasted words.
8. Word for Word. A dictionary of synonyms. John O. E. Clark[2].

Olimlar tomonidan sinonimlar lug'ati ikki turga ajratiladi: .

1. Inventarli lug'at faqatgina sinonimlar ro'yxatini taqdim qiladi.
2. Tushuntiruvchi lug'at esa aksincha sinonimlar o'rtasidagi farqlar tavsifi hamda tasviriy materialni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda lug'atlarning ushbu ikki turidan foydalanildi.

Semantik munosabatlар kognitiv jarayonlarning natijasi hisoblanib, mazkur ishda quyidagi tezaurus-lug'atlardan foydalanildi:

1. New Webster's Dictionary and Thesaurus of the English Language. - Danbury, CT: Lexicon Publications, Inc. - 1995.
2. Roget's International Thesaurus. / Ed. By Robert L. Chapman. - : Harper Perennial, 1992.
3. Roget's Thesaurus of English Words and Phrases. - Great Britain : Hazell Watson & VineyLtd., 1977.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sinonimlarni kognitiv paradigmada konseptual tahlil, geshtalt yondashuv (shaxsning yaxlit aqliy konstruksiylari va ularning lingvistik xossalaringin o'zaro ta'siri) asosida o'rganilishi leksikografik manbalarda qayd etilmagan sinonimik munosabatlarni aniqlashga imkon beradi. Ushbu tahlilga asosan so'zlarning semantik aloqasi sinonimiyaning kognitiv mexanizmlarini ochishda lingvistik omil bo'lib xizmat qiladi. Matnlarda sinonimik munosabatlarni o'rganishda kontekst va matn tushunchalariga oydinlik kiritish lozim. Agar matnning lingvistik vositalarni o'z ichiga olsa, lingvokognitiv jihatni matnlarni hosil qilish va idrok etish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bir hodisani turli tomonlarini oydinlashtirib, farqlovchi sinonimik vositalar ongda rivojlangan va mavjud bo'lgan yaxlit psixik shakllanishlarni – geshtaltlarni ifodalaydi. Kognitiv paradigmadagi geshtalt yondashuv sinonimik qator chegaralarini cheklanmasligini tushunishga imkon beradi, chunki

kognitiv paradigma o'z obyektivligiga mos keladigan leksik birliklarni qabul qiluvchi erkin hujayrani o'z ichiga oladi. Kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi sinonimiyaga yangicha yondashuv bilan qarashga imkon yaratdi. Ya'ni lug'atlarda bir sohaga oid bo'lgan so'zlar va unga assotsiativ bo'lgan leksik birliklar kirishi bilan izohlanadi. Kognitiv yondashuv asosiga ko'ra giperonim va giponimlarga sinonimlar sifatida qarash rivojlandi. Ushbu dissertatsiyamizning amaliy jihat shundan iboratki, konseptning mazmun tomonlarini tilda ifodalanishiga qaratilgan. Ma'lumki, konsept ko'p o'lchovli shakllanish va yadro va pereferik zonalarni ajratish sifatida tan olinadi. Abstrakt turdag'i konseptni tahlil qilar ekanmiz u quyidagi lisoniy jarayonlarni bosib o'tadi: ssenariy, skript, freym, geshtalt, prototip va kategoriyalash.

Shaxsiy fazilatlar konseptining yadrosi va ularning majoziy komponenti tilshunos olimlar tarafidan baholovchi, qarama-qarshi "men va boshqalar" dixotomiysi asosida ifodalanadi. Bundan tashqari konsept tarkibida yaxshi va yomon umumiyligi baholashning dixatomiyasi prinsipi bo'yicha shaxsiy fazilatlarni 30 segmentinii ajratib oldik. Tahsilga tortilgan konseptning har bir segmenti COCA korpusi orqali eng ko'p uchraydigan prototip segmentlarni ajratishga imkon berdi:

SOSA korpusi orqali shaxsiy fazilar konseptini asosiy segmentlari

konsept	Umumiyligi chastotasi	Badiiy uslubda	Publisistik uslubda	Ilmiy uslubda	Og'zaki uslubda
Honest	20571	4262	7378	1727	7204
warm	19053	6777	6528	2119	3629
Loyal	7511	1278	3653	1008	1572
evil	21055	5735	6938	4353	4029
Envy	4145	1452	1670	553	470
Cruel	5947	2562	1073	1060	1252

Shaxsiy fazilatlar konspetiga kiruvchi sifatlar tanlab olingan bo'lib, ular mazkur leksik-semantik guruhning ijobjiy va salbiy segmentlarining eng relevant belgilarini ifodalaydi, xususan: honest, warm, loyal; envy, evil, cruel.

1. Honest sifati Shaxsiy fazilatlar leksik-semantik guruhning ijobjiy baholangan eng ko'p sonli segmentining asosiy belgisini shakllantiradi (183 LB)
2. Warm sifati "ochiq ko'ngil" segmentiga kiradi (147 LB) hamda ijobjiy baholangan inson shaxsiy fazilatlarning birini ifodalaydi. U yuqorida keltirilgan lug'atlarning barcha turlarida o'z aksini topgan.
3. Loyal sifati Shaxsiy fazilatlar konspetining asosiy belgilariga kiradi hamda son jihat ikkinchi sanalgan "sodiq" segmentiga (156 LB) kirgan birliklar guruhidan o'r'in olgan.
4. Evil sifati Shaxsiy fazilatlar leksik-semantik guruhning salbiy baholangan eng ko'p sonli "yovuzlik" segmentining asosiy belgisini shakllantiradi (274 LB).
5. Envy sifati "hasad" segmentiga kiradi, (246 LB) hamda salbiy baholangan inson shaxsiy fazilatlaridan birini ifodalaydi.
6. Cruel sifati Shaxsiy fazilatlar konspetining asosiy belgilariga kiradi hamda son jihat ikkinchi sanalgan "shafqatsiz" segmentiga (225 LB) kirgan birliklar guruhidan o'r'in olgan.

XULOSA

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillar asosida inson tasavvuridagi ma'lum bir geshtaltlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: ijobjiy geshtaltlar, salbiy geshtaltlar va aralash geshtaltlar. Sinonimik vositalarni inventar va tushuntiruvchi lug'atlar tavsiflab ifoda etsa, tezaurus lug'atlarda esa leksik birliklar o'rtasidagi tizimli munosabatlar shakllanadi. Sinonimik vositalarni ifodalashda lug'atlarning bir qator afzal yoki kamchilik taraflariga ega bo'lishi bilan bir qatorda, barcha lug'atlar

TILSHUNOSLIK

yagona g'oya ostida, ya'ni so'zlovchilar ongi ostida shakllangan g'oyalarni obyektivlashtiruvchi lingvistik birlklarni birlashtirilgan. Shaxsiy fazilatlar tushunchasining geshtalt tahliliga asosan, bir birini to'ldiruvchi va aniqlovchi sinonimlar idrok etilayotgan ijtimoiy hodisalarning yagona, yaxlit shaklda tashkil etilganidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kondakov N.I. Logicheskiy slovar-spravochnik. N.I. Kondakov. – M.: Nauka, 1975. – 118 c.
2. Radzixovskiy, L. A. Dialog kak yedinitsa analiza soznaniya // Poznaniye i obsheniye ; otv. red. B. F. Lomov, A. V. Belyayeva, – M. : Nauka, 1988. – S. 24-35.
3. W. D.A. Cruse. Cognitive Linguistics. – Cambridge: the University Press, 2004. –157p.
4. Lakoff, G. Metaphors We Live By. G. Lakoff, –Chicago and London : The University of Chicago Press. 1980.
5. Webster's Dictionary and Thesaurus of the English Language. - Danbury, CT: Lexicon Publications, Inc. - 1995. - 1248 p.
6. Roget's International Thesaurus. / Ed. By Robert L. Chapman. - Harper Perennial, 1992.- 1299 p.
7. Roget's Thesaurus of English Words and Phrases. - Great Britain : Hazell Watson & VineyLtd, 1977.-712 p.
8. Webster's Dictionary of Synonyms. A Dictionary of Discriminated Synonyms with Antonyms and analogous and contrasted words. Springfield, Mass, 1968. - 907 p.
9. G.Saydaliyeva The formation of synonyms in dictionaries. <https://slib.uz/en/edition/view?id=142> Zamonaviy fan ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari **178-185 betlar**